

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA OILANING IJTIMOYIY AHAMIYATI

To'raboyeva Feruza Qo'shmat qizi

Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila jamiyatning muhim instituti ekanligi va barkamol avlod tarbiyasida oilaning ijtimoiy ahamiyati ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *axloqiy tarbiya, ijtimoiy rol, ijtimoiy mavqei, ijtimoiylashuv, shaxslararo munosabalar, qadriyatlar, mahalla, kategoriya, marginallik, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiylashuv agentlari.*

Barkamol, bilimli va sog'lom avlod tarbiyasi davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Farzand-oila hayotining mazmuni, nasl-nasabining davomchisi va oilaning mustahkam zanjirihisoblanadi. Aqlli, o'qimishli, mehnatsevar va odob-axloqli farzand nafaqat oilaning, balki jamiyatning ham boyligidir. Odatda, farzandlar oilada ham ma'nau, ham jismonan ulg'ayadi. Oila-tarbiya maskani hisoblanib, farzandni axloqiy, ma'naviy, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida dastlabki asos oila tarbiyasidan boshlanadi. Oilada tarbiya o'z kuchiga ega bo'lishi lozim. Chunki, jamiyatning ertangi kuni farzandlarning yuksak darajadagi ta'lim-tarbiyasi va odob-axloqiga bog'liq.

Ulug' alloma Abdulla Avloniy tarbiya haqida "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan edi.

Yosh avlodni komil inson bo'lib voyaga yetishida oilaning ijtimoiy roli va ijtimoiy mavqei muhimdir. Buni shu yaqqol isbotlaydiki, shaxsning shakllanishi avvalo oiladan boshlanadi. Ma'lumki, hayot ijtimoiy taraqqiyot sari olg'a borgani sari odamlar bir-biri bilan shaxslararo munosabatlarga kirishishi tabiiy hol. Bu jarayon esa avvalo oilada, oilaviy munosabatlar asosida vujudga keladi. Oilaviy munosabatlar esa, oilada ijtimoiylashuv jarayoni vujudga kelishi bilan boshlanadi. Ijtimoiylashuv jarayoni esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya, oilaviy muhit, axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda istalgan inson avvalo oilada tarbiyalanadi.

Oila kishilarning shunday guruhiki, uning a'zolari bir-biri bilan to'g'ridan-to'g'ri qon-qarindoshlik munosabatida bo'lib, guruhning yoshi katta a'zolari bolalarga qarashish va yordam berish majburiyatlarini o'z zimmalariga oladi.

Oila bu tarbiyaning birlamchi va ilk jarayoni vujudga keladigan qo'rg'on. Har qanday shaxs avvalo tarbiyani oilada so'ng esa ta'lim-tarbiya maskanlarida oladi.



Jamiyat taraqqiyotini belgilashda, oila va unda tarbiya oluvchi farzandlarning ma'nan barkamol, ruhan sog'lom bo'lib voyaga yetishi katta ahamiyatga molikdir.

Ota-onalar farzandlarini bilimli, ma'naviyatli, yuksak axloqli va istiqbolli kelajagi uchun mas'uldirlar. Oilaning ahamiyati, ijtimoiy tarbiyaning asl maqsadi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish, undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdan iboratdir. Rus sotsiologi N.Andrenkova ijtimoiylashuv jarayonini ikki katta bosqichda tasavvur qiladi. Uning birinchi bosqichi- individning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'lagini o'z ichiga olib, u inson hayotining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu davrda asosan bolaning:

dastlabki ilk sotsializatsiyasi (bolalik davri);

normativ xulqning marginal jihatlarini o'zlashtirish davri (o'smirlik davriga to'g'ri keladi);

o'spirinlikdan balog'at yoshiga o'tish davrini o'z ichiga olgan ijtimoiylashuv oqibatlarini yaxlit namoyon bo'ladi.

Ikkinchi bosqich- shakllanib bo'lgan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishi davrlarini o'z ichiga olgan hayot bosqichi. Ijtimoiylashuvning dastlabki yillarida uning samaradorligi ko'proq yuqorida ta'kidlaganimizdek, oila, undagi ijtimoiy-psixologik muhit va ota-onaning tarbiyachilik burchini qanday ado etganligiga bog'liq bo'lsa, uning keying bosqichlarida ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarining roli ortib boradi[2].

Ijtimoiylashuv inson shakllanishining asosiy negizidir. Ijtimoiylashuvning ilk va asosiy makoni sotsial institut hisoblanmish oiladir. Bolaning asosiy ijtimoiy agentlari bola bilan tez-tez muloqotda bo'ladigan bolaning oilasi ya'ni ota-onasi va yaqinlari, bolalar bog'chasi va jamiyatdagi do'stlari hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv agentlari deganda, ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradigan ijtimoiy kontekstlar va guruhlarni tushunamiz. Barcha madaniyatlarda oila bola uchunasosiyijtimoiylashtiruvchi agent hisoblanadi. Keyinroq esa, ijtimoiylashuvning yana ko'plab agentlari paydo bo'ladi.

Aslida ijtimoiylashuv agentlari turlicha bo'lib, turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi, ammo eng muhimi oila hisoblanadi. Bolalar va o'smir yoshidagilar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindoshlari, tengdoshlari va qo'shnilari bo'lishi mumkin. Oiladagi ijtimoiylashuvning muhim tomoni oilada ijtimoiy jihatdan barkamol, mustaqil, yetuk shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Ijtimoiylashuv jarayoni individning ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayoni bo'lib, bu jarayon shaxsning jamiyatga yaqinlashuvi uchun ham asos bo'ladi.

Bola tug'ilishi bilan ota-onasining parvarishi orqali tashqi muhit bilan moslashadi va tanishib boradi. O'zbek oilalarida yosh avlod tarbiyasiga azaldan



katta ahamiyat berilgan. Hozirda esa bu jarayon o'z tajribasini orttirib, mukammallashib kelmoqda. Bola asosan oila muhitida tarbiyalanadi, tarbiya esa hayotning muhim tayanchi hisoblanadi. Oila jamiyatda yashay oladigan shaxsni tarbiyalar ekan, tashqi omillardan himoya qiladi, qiyin paytlarda qo'llab quvvatlaydi. Ma'lumki, sharqning buyuk allomalari ta'lim va tarbiya masalalariga alohida e'tibor berishgan. Jumladan, Abu Ali ibn Sino ham mazkur ustuvor masalalarga oid bir necha asarlar, o'zidan boy ilmiy meros qoldirgan. Ibn Sino bolani maktabda o'qitish oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanishi, u tarbiya o'chog'i sifatida shaxsning shakllanishida muttasil ishtirok etadi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini ta'minlashda undagi ijtimoiy-psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar insonning kamolot darajasini belgilaydi deb ta'kidlagan. Oiladagi mehr-muhabbat va samimiyat, oila a'zolarining bir-biriga e'tiborliligi va g'amxo'rliigi bolalar ruhiyatiga kuchli ta'sir etadi, bolaning his-tuyg'ulari namoyon bo'lishi, uning ma'naviy ehtiyojlari shakllanishi va amalga oshishi uchun keng imkoniyatlar beradi. Darhaqiqat, sog'lom muhit turmush tarzini barqarorlashtirish, farzandlarni barkamol etib tarbiyalash, oilaning tarbiyaviy va ijtimoiy rolini bajarishda fuqarolik mas'uliyatini oshirish zarur. Bu esa ota-onalardan mas'uliyat talab etadi.

Abdurauf Fitrat "Oila" asarida oila asosini to'g'ri qurish kerakligi, yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilib jumladan, "Axloqiy tarbiya- odam axloqining kamolga yetkazish demakdir, ya'ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo'lsin. Boshqacha aytganda, odamning fe'l-u o'yi va harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir" deb yozadi mazkur asarda.

Oilada bolalarni axloqiy shakllantirish bola tug'ilganidan boshlanadi. Aynan bu jarayon ko'pgina omillar asosida vujudga keladi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarnin namunasi, oilaviy qadriyatlar, ulardagi ta'lim darajasi, ularning pedogogik va psixologik madaniyatiga bog'liq bo'lib, bu omillar oilada axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi. Barkamol avlod tarbiyasida axloqiy tarbiya eng muhimi hisoblanadi. Jamiyat tuzilishidan kelib chiqqan holda axloqiy hislatlarni, axloqiy qadriyatlarni, e'tiqod, mezonlarni va ko'nikmalarini yosh avlod tarbiyasida singdirish zarur. Qadriyatlar bo'lajak yosh avlodda milliy iftixor, milliy g'urur shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Axloq bu jamiyatda o'rnatilgan, tan olingan me'yor tartib-qoidalar bo'lib, kishilarning xatti-harakatini tartibga soluvchi jarayon hisoblanadi. Bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanish mohiyatiga ham atroflicha ahamiyat berish kerak.



Yoshlarni oila va unda saqlanib kelayotgan azaliy qadriyatlar ta'sirida axloqan tarbiyalash muammosi ko'plab nazariy va empirik izlanishlar predmetiga aylanmoqda. Zero, bu yondashuv o'tmish allomalarining falsafiy-g'oyaviy qarashlari, oila, va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan o'g'itlari ma'no mohiyatiga mosdir. Sharqning buyuk mutaffakkirlari sanalmish Ahmad al-Farg'oniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino kabi o'nlab allomalar qarashlarida bola tarbiyasida eng muhim ijtimoiy omil sifatida oila, ota-onaning dunyoqarashi tarbiya uslublari va bunda jamiyat e'tirof etgan me'yorlarning oila qadriyatlariga muvofiqligi tamoyili o'z ifodasini topgan.[5].

O'zbek oilasida avlodlardan meros bo'lib qolgan tarbiya mezonlari va an'analari mavjud bo'lib, ularning hayotiyliigi va bardavomligi bois jamiyatda qadr topgan barchasida yosh avlod tarbiyasi masalasi yetakchi hisoblangan udumlar, an'analar va urf-odatlar hamon saqlanib kelmoqda. Oilaviy urf-odatlar va qadriyatlarga rioya qilish bu jamiyat hujayralarining oilaviy baxt va hamjihatlik ifodasidir. Oilada har qanday an'ananing asosini avvalambor avlodlar tajribasi, hayotiy qadriyatlar, axloq va axloq normalari tashkil etadi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ихтиёр Бахтиёрович Хамракулов (2021). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ БАРПО ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Scientific progress*, 2 (7), 586-592.
2. Ихтиёр Бахтиёрович Хамракулов (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific progress*, 3 (1), 328-334.
3. Хамракулов Ихтиёр Бахтиёрович (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИЯТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (Special Issue 2), 140-146.
4. Хамракулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ* (pp. 49-51).
5. Khamrakulov, I. (2022). Organizational and economic foundations for creating small industrial zones in Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 233-237.



6. Asqarova, A., Xonkeldiyeva, K., Abdumutalibova, X., & Murotova, D. (2021). Issues of increasing the competitiveness of light industry enterprises. In Наука сегодня: проблемы и пути решения (pp. 48-49).
7. Хайдаров, Х., Нурматова, И., & Хонкелдиева, К. (2021). Факторы формирования сильного конкурентного рынка в текстильной промышленности. In НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ (pp. 59-61).
8. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Nomonjonova, F. U., Qodirova, S. Q., & Arabxonova, X. A. (2021). Classification Of Competition In The Market Of Light Industrial Goods And The Factors That Shape It. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 43-46.
9. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Abdukarimova, R. A., Xudoyberdiyeva, X. B., & Egamberdiyeva, N. B. (2021). Theories Of Marketing Strategies To Increase The Competitiveness Of Light Industry Enterprises. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 40-42.
10. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Хасанхужаева, У. (2021). Предупреждение преступности среди несовершеннолетних. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 34-35).
11. Xonkeldiyeva, K., & Xo'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.
12. Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 780-783.
13. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. The American journal of interdisciplinary innovations and research, 3(01), 113-117.
14. Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 36-39.
15. Xonkeldiyeva K., & Xo'Jamberdiyev J. (2020). IMPROVING ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS OF INDUSTRIAL PRODUCTION. Экономика и социум, (3 (70)), 145-147.
16. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 18-19).
17. Хонкелдиева, К., & Хўжамбердиев, Ж. (2020). Проблемы развития организации: управленческий и логистический аспекты. In Наука сегодня: история и современность (pp. 17-19).





18. Хонкелдиева, К., & Толибжонова, М. (2020). Механизм формирования инновационного процесса в текстильном производстве как основа адаптации к процессам глобализации. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 15-16).

19. Хонкелдиева, К., & Абдусатторова, З. (2020). Социальная инфраструктура как фактор социально-экономического развития региона. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 17-18).

20. Хонкелдиева, К., & Фарохиддинова, З. (2020). Гендерное равенство как ценность права. Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы: материя.

21. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Необходимые условия обеспечения гендерного равенства. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 40-41).

22. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Абдусатторова, З. (2020). Проблемы развития социального обеспечения населения. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 42-43).

23. Хонкелдиева, К. (2020). Актуальные вопросы повышения экономического потенциала текстильной промышленности. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 13-15).

24. Хонкелдиева, К., & Фарохиддинова, З. (2020). Гендерное равенство как ценность права. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 61-62).

25. Хонкелдиева, К., & Маматкулова, Ф. (2020). Социально-экономические аспекты устойчивого развития предприятия. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 36-37).

26. Хонкелдиева, К., & Фарохиддинова, З. (2020). Оценка влияния рынка труда на уровень безработицы в республике Узбекистан. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 37-38).

